

KIMYO SANOATI KORXONALARI FAOLIYATIDA IQTISODIY SALOHIYAT TUSHUNCHASINING AHAMIYATI

Vaxobov Shohjahon Valiyevich

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada kimyo sanoati korxonaları faoliyatida iqtisodiy salohiyat tushunchasining nazariy mazmuni va amaliy ahamiyati kompleks ilmiy tahlil qilingan. Maqola doirasida iqtisodiy salohiyat sanoat korxonalarining resurslar bilan ta'minlanganligi, ishlab chiqarish quvvatlari, moliyaviy barqarorligi, innovatsion imkoniyatlari va bozor sharoitiga moslashuvchanligini ifodalovchi muhim iqtisodiy kategoriya sifatida asoslab berilgan. Shuningdek, iqtisodiy salohiyatning kimyo sanoati korxonaları raqobatbardoshligi, investitsion jozibadorligi va barqaror rivojlanishini ta'minlashdagi roli ochib berilgan. Maqolada iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish korxonalar faoliyati natijadorligini oshirishning strategik omili ekanligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy salohiyat, kimyo sanoati, sanoat korxonasi, resurs samaradorligi, raqobatbardoshlik, barqaror rivojlanish.

Аннотация

В данной статье проведён комплексный научный анализ теоретического содержания и практической значимости понятия экономического потенциала в деятельности предприятий химической промышленности. В рамках исследования экономический потенциал обоснован как важная экономическая категория, отражающая уровень обеспеченности промышленных предприятий ресурсами, производственные мощности, финансовую устойчивость, инновационные возможности и способность адаптации к рыночным условиям. Также раскрыта роль экономического потенциала в обеспечении конкурентоспособности, инвестиционной привлекательности и устойчивого развития предприятий химической промышленности. В статье научно обосновано, что эффективное использование экономического потенциала является стратегическим фактором повышения результативности деятельности предприятий.

Ключевые слова: экономический потенциал, химическая промышленность, промышленное предприятие, эффективность ресурсов, конкурентоспособность, устойчивое развитие.

Abstract

This article provides a comprehensive scientific analysis of the theoretical content and practical significance of the concept of economic potential in the activities of chemical industry enterprises. Within the framework of the study, economic potential is substantiated as an important economic category that reflects the level of resource provision, production capacities, financial stability, innovative capabilities, and adaptability of industrial enterprises to market conditions. The role of economic potential in ensuring the competitiveness, investment attractiveness, and sustainable

development of chemical industry enterprises is also revealed. The article scientifically substantiates that the effective utilization of economic potential is a strategic factor in enhancing the performance of enterprises.

Keywords: economic potential, chemical industry, industrial enterprise, resource efficiency, competitiveness, sustainable development.

KIRISH

Globalashuv, sanoat tarmoqlarida raqobatning kuchayishi va texnologik transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash masalasi iqtisodiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, resurs talabchan va yuqori kapital sig'imiga ega bo'lgan kimyo sanoati korxonalari faoliyatida iqtisodiy salohiyatni shakllantirish va undan samarali foydalanish muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining iqtisodiy salohiyati ularning ishlab chiqarish imkoniyatlari, moliyaviy barqarorligi, innovatsion faolligi va raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Iqtisodiy adabiyotlarda "iqtisodiy salohiyat" tushunchasi ko'p qirrali iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilinib, u korxonaning mavjud resurslari, yashirin imkoniyatlari va kelajakdagi rivojlanish qobiliyatini o'zida mujassamlashtiradi. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda iqtisodiy salohiyat faqat resurslar yig'indisi bilan cheklanmay, balki ularni samarali boshqarish, bozor talablariga moslashtirish va yuqori qo'shilgan qiymat yaratish qobiliyatini ham ifodalaydi. Bu jihatlar kimyo sanoati korxonalari faoliyatida ayniqsa dolzarb bo'lib, mazkur tarmoqda iqtisodiy salohiyatning to'g'ri shakllanishi butun sanoat tizimining barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida kimyo sanoati sanoat diversifikatsiyasini ta'minlovchi, eksport salohiyatini oshiruvchi va boshqa tarmoqlar uchun muhim oraliq mahsulotlar yetkazib beruvchi strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda kimyo sanoati korxonalari faoliyatida ishlab chiqarish hajmlarining o'sishi, mahsulotlar tarkibining kengayishi va tashqi bozorlarga chiqish ko'lamining ortishi ushbu tarmoqning iqtisodiy salohiyati sezilarli darajada oshayotganidan dalolat beradi. Biroq mavjud imkoniyatlardan to'liq va samarali foydalanish masalalari hanz dolzarb bo'lib qolmoqda.

Shu munosabat bilan, mazkur maqolada kimyo sanoati korxonalari faoliyatida iqtisodiy salohiyat tushunchasining iqtisodiy mazmuni, uning shakllanish omillari hamda sanoat rivojlanishidagi ahamiyatini statistik va tahliliy ma'lumotlar asosida ochib berish maqsad qilib qo'yildi. Tadqiqot natijalari kimyo sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholash va uni oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqarish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi ko'zda tutiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy salohiyat tushunchasi iqtisodiy nazariyada ko'p qirrali va murakkab kategoriya sifatida talqin qilinadi. Klassik iqtisodchi olimlar iqtisodiy salohiyatni asosan ishlab chiqarish resurslari va ularning kombinatsiyasi sifatida baholagan bo'lsa,

zamonaviy tadqiqotlarda ushbu tushuncha korxonaning strategik imkoniyatlari va kelajak rivojlanish qobiliyati bilan bog‘lab o‘rganilmoqda.

Xorijiy iqtisodchi olimlar iqtisodiy salohiyatni korxonaning mavjud resurslarini samarali boshqarish va ularni bozor talablariga mos ravishda transformatsiya qilish qobiliyati sifatida izohlaydilar. Ular iqtisodiy salohiyatni raqobat ustunliklarini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida ko‘radi. Ayniqsa, sanoat tarmoqlarida iqtisodiy salohiyat innovatsiyalar, texnologik daraja va institutsional muhit bilan chambarchas bog‘liq ekani ta’kidlanadi.

MDH mamlakatlari olimlari tadqiqotlarida iqtisodiy salohiyat resurs, ishlab chiqarish va moliyaviy salohiyatlarning o‘zaro integratsiyasi sifatida qaraladi. Ular sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatni oshirish uchun resurslardan samarali foydalanish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratgan.

O‘zbekiston iqtisodchi olimlari ishlarida iqtisodiy salohiyat sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlashda asosiy iqtisodiy omil sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, kimyo sanoati korxonalarida iqtisodiy salohiyatni oshirish tarmoqning eksport salohiyati, import o‘rnini bosish va sanoat diversifikatsiyasi bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. Biroq mavjud tadqiqotlarda iqtisodiy salohiyat tushunchasining kimyo sanoatiga xos kompleks tahlili yetarli darajada ochib berilmagan.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, iqtisodiy-tahliliy usullar, taqqoslama tahlil, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy fikrlash hamda integral yondashuv usullaridan foydalanildi. Iqtisodiy salohiyat tushunchasini ochib berishda resurs–natija modeli va funksional tahlil qo‘llanildi.

SHuningdek, kimyo sanoati korxonalarini faoliyatiga oid rasmiy statistik ma’lumotlar, sohasiy hisobotlar va xalqaro tashkilotlar materiallari tahlil qilinib, ular asosida iqtisodiy salohiyatning tarkibiy elementlari va ahamiyati baholandi. Metodologik asos sifatida iqtisodiy salohiyatni dinamik va kompleks iqtisodiy kategoriya sifatida qarash yondashuvi qabul qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kimyo sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmi dinamikasi ularning iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi asosiy integral ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. 2020-2024 yillar davomida O‘zbekiston kimyo sanoatida ishlab chiqarish hajmining qariyb 2,5 barobarga o‘sishi tarmoqda mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasining oshganini, shuningdek, modernizatsiya va investitsion faollikning kuchayganini ko‘rsatadi. Bu holat kimyo sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyati nafaqat miqdoriy jihatdan kengayganini, balki uning sifat tarkibida ham ijobiy o‘zgarishlar yuz berganini anglatadi [1].

Ayniqsa, 2024-yilda plastmassa va rezina mahsulotlari ishlab chiqarilishining \$1,4 mlrd hajmga etib, yillik 60,3% o‘shishni tashkil etishi kimyo sanoatida yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushining ortib borayotganini tasdiqlaydi. Bu tendensiya korxonalarining texnologik darajasi oshgani, mahsulot assortimenti

diversifikatsiya qilingani va ichki hamda tashqi bozor talablariga moslashuvchanlik salohiyati kuchaygani bilan izohlanadi. Natijada, iqtisodiy salohiyat ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan bir qatorda mahsulot sifati va raqobatbardoshligini ta'minlovchi omilga aylanmoqda [5].

Shu bilan birga, kimyo mahsulotlari eksporti hajmining 1,6 mlrd AQSH dollargacha o'sishi tarmoq korxonalarining tashqi bozorlardagi pozitsiyasi mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Eksport ko'rsatkichlarining o'sishi iqtisodiy salohiyatning tashqi yo'naltirilgan tarkibiy qismlari — logistika imkoniyatlari, xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarish, moliyaviy barqarorlik va valyuta tushumlarini shakllantirish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir. Bu holat kimyo sanoati korxonalarini iqtisodiy salohiyatining milliy iqtisodiyot barqarorligiga qo'shayotgan hissasini yanada oshiradi [2].

Umuman olganda, ishlab chiqarish hajmi, mahsulot tarkibi va eksport ko'rsatkichlaridagi ijobiy dinamika kimyo sanoati korxonalarini iqtisodiy salohiyatining tizimli ravishda rivojlanayotganini anglatadi. Mazkur tendensiyalar iqtisodiy salohiyatni faqat resurslar yig'indisi emas, balki bozor sharoitida barqaror o'sishni ta'minlay oladigan strategik iqtisodiy kategoriya sifatida baholash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishi ko'p tarmoqli tuzilmaga ega bo'lib, kimyo mahsulotlari ushbu tuzilmaning muhim va funksional tarkibiy qismi hisoblanadi. 2025-yilning yanvar–dekabr oylari yakunlariga ko'ra sanoat mahsulotlari umumiy hajmining 1,1 kvadrillion so'mga etishi mamlakat sanoat salohiyatining sezilarli darajada kengayganini ko'rsatadi. Ushbu o'sish sharoitida kimyo sanoati mahsulotlarining umumiy sanoat hajmidagi ishtiroki tarmoqning iqtisodiy ahamiyatini aniq ifodalaydi[4].

Jumladan, rezina va plastmassa mahsulotlarining sanoat mahsulotlari tarkibida 4,7 foiz ulushga egaligi kimyo sanoati korxonalarining iqtisodiy roli barqaror ekanini ko'rsatadi. Ushbu mahsulotlar yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lib, qurilish, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi va transport kabi tarmoqlar faoliyatini ta'minlovchi asosiy oraliq mahsulotlar hisoblanadi. Shu bois, kimyo mahsulotlarining sanoat strukturasi ulushi nafaqat tarmoq ichidagi ahamiyatni, balki butun iqtisodiyotdagi multiplikativ ta'sirni ham aks ettiradi.

Shuningdek, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni va ular jalb qilayotgan mehnat resurslari sanoatning funksional va institutsional salohiyatini belgilab beradi. Kimyo sanoati yuqori texnologiyali, kapital va bilim talabchan tarmoq sifatida inson kapitali, innovatsion faollik va boshqaruv samaradorligining yuqori darajasini taqozo etadi. Demak, sanoat mahsulotlari strukturasi kimyo mahsulotlarining barqaror ulushga ega bo'lishi kimyo sanoati korxonalarini iqtisodiy salohiyatining tizimli ravishda shakllanayotganini va uning milliy iqtisodiyot barqarorligidagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi[3].

Eksport faoliyati kimyo sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholashda muhim integral ko'rsatkich hisoblanadi, chunki u ishlab chiqarish imkoniyatlari, mahsulot raqobatbardoshligi va xalqaro bozor talablariga moslashuvchanlik darajasini

aks ettiradi. 2023–2024 yillarda kimyo mahsulotlari eksportining umumiy hajmi bir necha yuz million AQSH dollarini tashkil etib, xususan, 2023-yilda rejalashtirilgan eksport hajmining 492,9 mln AQSH dollar darajasida belgilanishi tarmoq korxonalarining tashqi bozorlarga chiqish salohiyati barqaror ravishda shakllanayotganini koʻrsatadi. Bu holat kimyo sanoati korxonalarining eksportga yoʻnaltirilgan ishlab chiqarish modelini bosqichma-bosqich rivojlantirayotganini anglatadi.

Keyingi davrda eksport hajmining jadal oʻsishi kuzatilib, 2024–2025 yillarda kimyo mahsulotlari eksporti 1,5–1,6 mlrd AQSH dollar atrofida qayd etilgani sohada sifat jihatdan yangi bosqich boshlanganidan dalolat beradi. Bunday oʻsish surʼatlari, avvalo, yuqori qoʻshimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining ortishi, texnologik modernizatsiya jarayonlarining jadallashishi va tashqi bozorlar geografiyasining kengayishi bilan bogʻliqdir. Natijada, eksport iqtisodiy salohiyatning faqat natijaviy koʻrsatkichi emas, balki uning oʻsishini ragʻbatlantiruvchi omilga aylanmoqda.

Shu bilan birga, 2020-yilda eksport tarkibida kimyo mahsulotlarining 19,2 foizdan yuqori ulushga ega boʻlgani ushbu tarmoqning milliy eksport salohiyatida strategik ahamiyat kasb etayotganini koʻrsatadi. Bunday ulush kimyo sanoatini tashqi savdoda xomashyoga qaram boʻlmagan, qayta ishlashga asoslangan va sanoat diversifikatsiyasini taʼminlovchi muhim yoʻnalish sifatida tavsiflash imkonini beradi. Ayniqsa, eksport tushumlarining oʻsishi valyuta zaxiralarini shakllantirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va investitsion faollikni oshirishda muhim iqtisodiy asos boʻlib xizmat qiladi.

Kimyo mahsulotlari eksportida kuzatilayotgan ijobiy dinamika kimyo sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyati tashqi bozorlar bilan integratsiyalashuv orqali kengayayotganini koʻrsatadi. Eksport hajmi va ulushining ortishi iqtisodiy salohiyatni korxonalarining ichki imkoniyatlari bilan birga, ularning global iqtisodiy makonda raqobatlasha olish qobiliyatini ifodalovchi strategik kategoriya sifatida baholash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholashda ichki statistik koʻrsatkichlar muhim ahamiyatga ega boʻlib, ular korxonalar faoliyatining institutsional, tarkibiy va funksional jihatlarini aks ettiradi. Oʻzbekiston statistika qoʻmitasi maʼlumotlariga koʻra, 2025-yilning birinchi yarmida respublikada 59 mingdan ortiq sanoat korxonalarining faoliyat yuritishi mamlakat sanoat bazasining kengayib borayotganini koʻrsatadi. Korxonalar sonining ortishi iqtisodiy salohiyatning miqdoriy asosi shakllanayotganini anglatadi, ularning tarmoqlar boʻyicha taqsimlanishi ushbu salohiyatning sifat xususiyatlarini belgilab beradi.

Mazkur tarkibiy tuzilmada kimyo sanoati korxonalarining ulushi, xususan, rezina va plastmassa mahsulotlari ishlab chiqarish orqali 4,7 foiz ulush bilan ifodalanishi, ushbu tarmoqning sanoat tizimida barqaror oʻringa ega ekanini koʻrsatadi. Bu koʻrsatkich kimyo sanoatining miqdoriy jihatdan nisbatan cheklangan boʻlishiga qaramasdan, uning iqtisodiy taʼsiri yuqori ekanini anglatadi. Chunki kimyo

mahsulotlari ko'p hollarda boshqa sanoat tarmoqlari uchun oraliq resurs sifatida xizmat qiladi va shu orqali iqtisodiy multiplikativ ta'sirni ta'minlaydi.

Shu bilan birga, sanoat mahsuloti umumiy hajmida tayyor mahsulot, kiyim-kechak va oziq-ovqat mahsulotlarining katta ulushni egallashi iqtisodiyotning iste'molga yo'naltirilgan segmentlari faol rivojlanayotganini ko'rsatadi. Biroq ushbu sharoitda kimyo sanoati korxonalarida kuzatilayotgan o'zgarishlar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular sanoatning texnologik chuqurlashuvi, qayta ishlash darajasi va yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish bilan bevosita bog'liqdir. Bu esa iqtisodiy salohiyatning sifat jihatdan o'sishini ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Sanoat korxonalarini soni, tarmoqlar bo'yicha tuzilishi va mahsulot hajmidagi tarkibiy o'zgarishlar kimyo sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyati mahalliy iqtisodiy muhit bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi. Mazkur ichki statistik ko'rsatkichlar iqtisodiy salohiyatni faqat korxonalar darajasida emas, balki butun sanoat tizimi kontekstida baholash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Yuqorida tahlil qilingan statistik ma'lumotlar kimyo sanoati korxonalarini iqtisodiy salohiyatining shakllanishi va rivojlanish jarayonini kompleks ravishda aks ettiradi. Ishlab chiqarish hajmi va eksport ko'rsatkichlarida kuzatilayotgan jadal o'sish tarmoq korxonalarining iqtisodiy imkoniyatlari miqdoriy jihatdan kengayganinigina emas, balki ularning texnologik, moliyaviy va tashkiliy salohiyati sifat jihatdan mustahkamlanganini ham ko'rsatadi. Bu holat iqtisodiy salohiyatni korxonalarining faqat joriy natijalarini ifodalovchi kategoriya emas, balki uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlovchi strategik omil sifatida baholash zarurligini tasdiqlaydi.

Sanoat mahsulotlari strukturasi kimyo mahsulotlarining barqaror ulushga ega bo'lishi ushbu tarmoqning milliy iqtisodiyotda assotsiatsiyalangan ahamiyatini ochib beradi. Kimyo mahsulotlari ko'plab sanoat tarmoqlari uchun oraliq resurs sifatida xizmat qilgani sababli, ularning sanoat tuzilmasidagi ishtiroki iqtisodiy multiplikativ ta'sirni yuzaga keltiradi. Shu jihatdan, strukturadagi ulush ko'rsatkichlari kimyo sanoati korxonalarini iqtisodiy salohiyatining tizimli va tarmoqlararo ahamiyatga ega ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Shu bilan birga, sanoatda faoliyat yuritayotgan korxonalar soni va ularning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi iqtisodiy salohiyatning institutsional asosini ifodalaydi. Kimyo sanoati korxonalarining sanoat tizimidagi jamlangan statistikasi mazkur tarmoqning yuqori texnologiyali, kapital va bilim talabchan yo'nalish sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi. Bu esa iqtisodiy salohiyatni baholashda faqat ishlab chiqarish hajmlariga emas, balki korxonalar tuzilishi, kadrlar salohiyati va boshqaruv imkoniyatlariga ham e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Keltirilgan statistik ma'lumotlar iqtisodiy salohiyatni hisoblash modellari, korrelyatsiya va regressiya tahlillari hamda raqobatbardoshlik indekslarini shakllantirish uchun mustahkam empirik baza yaratadi. Ushbu ma'lumotlar asosida iqtisodiy salohiyatni kompleks baholash sanoat korxonalarining rivojlanish darajasini aniqlash, zaif nuqtalarni identifikatsiya qilish va strategik qarorlar qabul qilishda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy salohiyat kimyo sanoati korxonalarida faoliyatida hal qiluvchi iqtisodiy kategoriya bo'lib, u resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, ishlab chiqarish imkoniyatlari, moliyaviy barqarorlik va strategik rivojlanish qobiliyatini o'zida mujassam etadi. Iqtisodiy salohiyatning yuqori darajasi kimyo sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, investitsiyalarni jalb etish va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish faqat resurslar hajmini oshirish emas, balki ularni oqilona boshqarish, innovatsion yechimlarni joriy etish va boshqaruv samaradorligini oshirish orqali ta'minlanishi lozim. Demak, iqtisodiy salohiyatni shakllantirish va uning samarali amal qilishi kimyo sanoati korxonalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy iqtisodiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://stat.uz> O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi
2. <https://invest.miit.uz/en/guide/explore/6> O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi.
3. <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-industrial-output-exceeds-11-quadrillion-soums-in-2025/> Uzbekistan's industrial output exceeds
4. <https://diplomatmagazine.eu/2023/06/05/chemical-industry-of-uzbekistan-potential-of-the-chemical-industry/> Chemical industry of Uzbekistan: export potential and global market integration
5. <https://plastex.uz/en/news/uzbekistans-foreign-trade-turnover-reaches-us363-billion-in-2020> Uzbekistan foreign trade turnover and chemical products share



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, yanvar, 1-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**